



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2025- yil yanvar

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 65-223-75-63

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar oyi, foizda)




2025- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 13 160 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 128 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 13 032 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar, mlrd. so'mda)



So'nggi 5 yillik (2021- 2025- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 119,9 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2024- 2025- yillar, foizda)



2025- yilning yanvar oyida o'sish sur'ati 108,5 % ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2025-yilning yanvar oyida viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 1 411,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 108,5 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 160,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 132,8%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 251,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 104,7%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 174,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 113,2 %) tashkil etdi.


Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar oy)

	Jami, mlrd. so'm *	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	1 411,8	108,5
Buxoro shahri	458,0	110,8
Kogon shahri	39,3	105,6
<i>tumanlar:</i>		
Olot	37,7	110,3
Buxoro	88,1	111,1
Vobkent	43,2	105,7
G'ijduvon	239,2	106,4
Kogon	58,2	107,6
Qorako'l	98,6	105,8
Qorovulbozor	30,2	116,4
Peshku	40,5	105,4
Romitan	85,6	107,4
Jondor	74,2	106,0
Shofirkon	46,4	106,5

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yilning yanvar oyida 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatining Buxoro shahri (110,8%), Qorovulbozor (116,4 %) va Buxoro (111,1 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Buxoro shahri 34,2 % bilan 458,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Qorovulbozor tumani 2,3 % bilan 30,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




Hajmi, mlrd. so'm

Buxoro sh.	458,0
G'ijduvon	239,2
Qorako'l	98,6
Buxoro	88,1
Romitan	85,6
Jondor	74,2
Kogon	58,2
Shofirkon	46,4
Vobkent	43,2
Peshku	40,5
Kogon sh.	39,3
Olot	37,7
Qorovulbozor	30,2




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2025- yilning yanvar oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 251,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 4,7 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,6 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 32,8 % ga o'sdi va 160,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,4 % ulushiga to'g'ri keldi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




● Yirik korxonalar

● Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorovulbozor (99,6 %), Buxoro (99,4 %) va Romitan (99,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Buxoro shahri (25,4 %), Kogon shahri (10,8 %) va Peshku tumanida (20,0 %) kuzatildi.




AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)



2025- yilning yanvar oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 685,2 ming so'm (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 106,8 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (1 540,0 ming so'm), Qorovulbozor (1 501,6 ming so'm) va G'ijduvon (736,1 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar), foizda



- Dehqon bozorlari



- Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2025- yil yanvar)**

	Jami, mlrd. so'm	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	174,7	113,2
Buxoro shahri	32,5	156,4
Kogon shahri	5,0	57,2
<i>tumanlar:</i>		
Olota	9,4	137,8
Buxoro	4,2	173,5
Vobkent	15,8	94,8
G'ijduvon	30,8	113,7
Kogon	0,3	39,5
Qorako'l	24,0	90,0
Qorovulbozor	8,1	270,2
Peshku	10,9	129,1
Romitan	17,5	116,2
Jondor	9,8	110,7
Shofirkon	6,4	71,1


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar
aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**
(2025- yil yanvar)















Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi,
mlrd. so'm (2025- yil yanvar)



Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 174,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 113,2% ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 77,8 mlrd. so'mni (113,9%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 96,9 mlrd. so'mni tashkil etdi (112,7 %).












2025- yilning yanvar oyida viloyatining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 77,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (40,8 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>40,8 mlrd. so'm</p>  <p>52,5 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>9,6 mlrd. so'm</p>  <p>12,3 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>5,2 mlrd. so'm</p>  <p>6,7 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>2,1 mlrd. so'm</p>  <p>2,7 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>5,7 mlrd. so'm</p>  <p>7,3 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>2,2 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>1,3 mlrd. so'm</p>  <p>1,7 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>2,4 mlrd. so'm</p>  <p>3,1 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>0,3 mlrd. so'm</p>  <p>0,4 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>2,2 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>0,8 mlrd. so'm</p>  <p>1,0 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>5,2 mlrd. so'm</p>  <p>6,7 %</p>

2025- yilning yanvar oyida, viloyatining barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 96,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 84,2 mlrd. so'm, qo'y va echkilar – 12,1 mlrd. so'mni, otlar – 0,4 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,2 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>51,5 mlrd. so'm</p>  <p>53,1 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>20,1 mlrd. so'm</p>  <p>20,8 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>12,6 mlrd. so'm</p>  <p>13,0 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>9,3 mlrd. so'm</p>  <p>9,6 %</p>	<p>Otlar</p> <p>0,4 mlrd. so'm</p>  <p>0,4 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>2,8 mlrd. so'm</p>  <p>2,9 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 540 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 534 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar)

	Jami mlrd. so'm *	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	633,8	109,7
Buxoro shahri	32,2	117,0
Kogon shahri	1,3	101,6
<i>tumanlar:</i>		
Olot	0,9	103,7
Buxoro	2,4	100,8
Vobkent	3,4	103,9
G'ijduvon	4,7	105,8
Kogon	0,9	101,9
Qorako'l	2,3	101,3
Qorovulbozor	1,8	101,5
Peshku	1,0	104,7
Romitan	4,6	98,3
Jondor	1,8	101,5
Shofirkon	1,2	105,2

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 633,8 mlrd. so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 9,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 87,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd. so‘m	Ulushi, foizda
Buxoro viloyati	243,4	100,0
Buxoro shahri	156,6	64,4
Kogon shahri	0,9	0,3
<i>tumanlar:</i>		
Olot	1,9	0,8
Buxoro	3,9	1,6
Vobkent	22,1	9,1
G‘ijduvon	33,0	13,5
Kogon	1,5	0,6
Qorako‘l	2,9	1,2
Qorovulbozor	0,5	0,2
Peshku	1,6	0,7
Romitan	1,9	0,8
Jondor	15,0	6,1
Shofirkon	1,6	0,7


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (156,6 mlrd. so‘m), Vobkent (22,1 mlrd. so‘m) va G‘ijduvon (33,0 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2025- yilning yanvar oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 243,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 38,6 % ga pasaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 156,6 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 55,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 86,8 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 74,7 %)ni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'atlari, foizda




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2025- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 138,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 11,1 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 817,1 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 71,7 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar)

	Jami mlrd. so'm *	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	1 138,8	111,1
Buxoro shahri	345,5	103,9
Kogon shahri	6,2	50,9
<i>tumanlar:</i>		
Olot	5,4	68,0
Buxoro	21,4	104,0
Vobkent	115,0	156,6
G'ijduvon	83,3	103,3
Kogon	63,5	96,0
Qorako'l	9,1	109,6
Qorovulbozor	45,6	124,9
Peshku	103,3	149,4
Romitan	72,3	103,7
Jondor	85,8	102,5
Shofirkon	6,0	110,7

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yil 1-fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 199 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 28 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 171 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Buxoro shahri (165,6 %), Peshku (160,6 %) va Vobkent (158,3 %) tumanlarida kuzatildi.